

## DEVIANT XULQ-ATVOR PROFILAKTIKASIDA SAMARALI PSIXOLOGIK TEKNOLOGIYALAR

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ ОТКЛОНЕННОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

### USE OF EFFECTIVE PSYCHOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREVENTION OF ABUSED BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

**Qodirov Obid Safarovich**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
“Amaliy psixologiya” kafedrası professori, psixologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Tel: +998902705702  
Email: obid.kodirov.79@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalarni tadqiq etish asosida taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Deviant xulq-atvor, profilaktika, samarali psixologik texnologiyalar, ehtiyoj, ma’naviy ehtiyoj, jamiyat ehtiyojlari, egoizm, psixokorreksiya, trening, mag‘lubiyatdan qochish, yutuqqa erishish, motivatsiya, samaradorlik.

**Аннотация:** Данная статья представляет собой разработку предложений и практических рекомендаций, основанных на исследовании эффективных психологических технологий профилактики девиантного поведения у подростков.

**Ключевые слова:** Девиантное поведение, профилактика, эффективные психологические технологии, потребность, духовная потребность, потребности общества, эгоизм, психокоррекция, обучение, избегание поражения, достижение, мотивация, эффективность.

**Abstract:** This article represents the development of proposals and practical recommendations based on research into effective psychological technologies for the prevention of deviant behavior in adolescents.

**Key words:** Deviant behavior, prevention, effective psychological technologies, need, spiritual need, needs of society, egoism, psychocorrection, training, avoiding defeat, achievement, motivation, efficiency.

Mavzusining dolzarbligi. Jahon ilm-fan va texnologiyalarining jadal takomillashuvi hamda buning natijasida ijtimoiy taraqqiyotning ham tubdan o‘zgarib borayotganligi sababli insonga xos bo‘lgan ong va tafakkur vositasida shaxsning voqelik va undagi qonuniyatlar haqida fikr yuritishi, yoshlar ongida tushunchalar, hukmlar va xulosalar vujudga kelishi,

insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida yoshlarning hayot va turmush tarzi, o‘qishi va mehnat faoliyatidagi turli-tuman muammolarga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘smirlarda deviant xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni psixologik jihatdan tahlil qilish hamda zaruriy psixoprofilaktik chora-tadbirlar belgilashda samarali psixologik texnologiyalarni yaratishda mazkur tadqiqot nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda maktab va mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan hech kim qiziqmayotganligi, bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo‘layotgani, o‘qishga qachon borib, qachon kelayotgani, yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, tovlamachilik, o‘g‘rilik, kiberjinoyatlar, giyohvandlik, nomusga tegish, zo‘ravonlik va qasoskorlik jinoyatlari sonining ortishi, ba’zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, odob-axloq tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, ichish-chekish, internetga tobelik hamda mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani tashvishli holat sifatida baholanmoqda. Shuningdek, jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarida «profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha ishlovchi mas’ul xodimlar va jamoatchilik vakillari uchun yoshlar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan ishlash bo‘yicha tarbiyaviy dasturlar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish» kabi vazifalar belgilanib, bu borada o‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalarni aniqlash, tashkiliy chora-tadbirlar mazmuni, hamda barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan va deviant xulq-atvor profilaktikasida ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi.

Mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Jahonda deviant xulq-atvorli o‘smirlarda jinoiy xulq profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalardan foydalangan holda jinoyatlarni barvaqt aniqlash va ularni oldini olish muammosi ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida XX asrning o‘rtalaridan psixologiya fanida dolzarb masala tariqasida tanlanib, hozirga qadar jahon psixologiyasi fanida turli psixologik ta’limot va konsepsiyalar doirasida o‘rganib kelinmoqda.

Jahonda o‘smirlar xulq-atvorida namoyon bo‘layotgan salbiy holatlarning turli omillari hamda ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash va o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan: jumladan, o‘smirlarda deviant xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillar o‘rganilgan (Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari); yoshlarda «normadan og‘ish» va «deviant xulq-atvor» tadqiq etilgan; yoshlarni turli salbiy holatlarda o‘zini psixologik himoya qilish mexanizmlari sifatida rehabilitatsiya qilish mashqlari yaratilgan (University of Michigan, Amerika Qo‘shma Shtatlari); psixodiagnostik usullar orqali o‘smirlardagi psixologik barqarorlikni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari va yoshlar bilan olib boriladigan xulq og‘ishlarining oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlar yaratilgan (Kaliforniya universiteti, Amerika Qo‘shma Shtatlari); o‘smir va yoshlardagi hayotiy motivatsiyasini oshirish xususiyati va refleksiv jarayonlari takomillashtirilgan (Leiden University, Niderlandiya); o‘smir va yoshlarda jinoiy xulq-atvor hamda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik

sabablari va omillari aniqlangan (Vuppertal Universiteti, Germaniya); suitsid haqida o‘ylaydigan odamlar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash, ularning ruhiy holati va xatti-harakatlarini kuzatish ishi amalga oshirilgan (University of Haifa, Isroil), sog‘lom psixologik turmush tarzini targ‘ib qilish, ta’lim muassasalarida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog‘liq psixologik muammolarini aniqlash (Jiangsu University, Xitoy), ta’lim muassasalari, shaxs faoliyati maskanlarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik turmush tarzini targ‘ib qilish, munosabatlarni yaxshilash, yuzaga keladigan nizolarni oldini olishga bog‘liq psixologik muammolarini aniqlash (The University of Queensland, Avstraliya); o‘smir va yoshlarda deviant xulq-atvor yuzaga kelishining asosiy psixologik sabablari, o‘smirlarni o‘qishga va kelgusidagi kasbiy faoliyatiga yo‘naltirish, ularning xatti-harakatlarini kuzatish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, mehnat jamoalaridagi shaxslararo munosabat tizimini ilmiy va psixologik tamoyillar yordamida asoslab beruvchi konsepsiya yaratilgan (A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti, Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalar masalalari bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar orasida eng dolzarb hamda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston ilm-fanida psixologiyaning eng muhim kategoriyasi sifatida faoliyat va deviant xulq-atvor (deviatsiya) muammosi mamlakatimiz psixolog olimlaridan B.Jo‘raev, N.G‘.Kamilova, Y.J.Nurimbetova, S.S.Ortiqov, F.U.Raxmatov, G.D.Tulaganova B.M.Umarov, G‘.B.Shoumarov, A.A.Fayzullaev, Z.C.Elov, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan o‘smirlar tarbiyasida yuzaga keladigan muammolar, deviant xulq-atvor va qiyinchiliklarning motivatsion asoslarini o‘rganish sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalar ilmiy tahlil etilgan. O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot izlanishlari muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ammo o‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalar alohida psixologik muammo sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi o‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalarni tadqiq etish asosida taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlaridan, shuningdek, K.Rodgers va R.Daymondning «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» usuli, B.Bassning «Shaxs yo‘nalganligiga tashxis qo‘yish» metodikasi, R.Girshfeldning «Shaxslararo bog‘liqlik (itoatkorlik)» so‘rovnomasi, V.V.Stolin va S.R.Panteleevning «O‘smirlarni o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlash» testi, yoshlar axloqida u yoki bu deviatsiyaga moyillikni aniqlashning universal - «Og‘ishgan xulqqa moyillikni tashhis qilish metodikasi» hamda «O‘smirlarda deviant xulq-atvor rivojlanishini aniqlovchi so‘rovnoma» mualliflik (A.M.Jabborov, O.S.Qodirov) so‘rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistika usullardan, foizli tahlil darajalari, faktorli tahlil, St’yudent t-mezonlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalarini tadbiq etish maqsadida «O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi» nomli dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga yo‘naltirilgan (28.11.2022 yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan № DGU 19660);

o‘smirlar xulqi psixoprofilaktikasini amalga oshirish uchun bir maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta’sir modeli ishlab chiqilgan;

o‘smirlarda deviant xulq-atvor rivojlanishining psixologik xususiyatlari uchun zarur bo‘lgan hamda shu soha tadqiqotlarida qo‘llanuvchi respublika ilm-fani uchun yangi psixodiagnostik metodikalar psixologik tadqiqotlar va psixologik xizmat amaliyotga olib kirilgan;

o‘smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy psixologik omillari aniqlagan hamda ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar (psixologik ma’rifat, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya, psixoprofilaktika) amaliyotga tadbiq etilgan;

o‘smirlar xulq-atvoriga psixokorreksion va psixoprofilaktik-rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan yangi texnologik yondashuv va uning uslubiy apparati sinovdan o‘tkazilgan hamda o‘smirlarda shakllanayotgan deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalardan umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika, shaxs psixologiyasi, yuridik psixologiya, eksperimental psixologiya va psixokorreksiya fanlaridagi mavjud nazariy bilimlarni yanada boyitishda hamda takomillashtirishda, o‘smirlar xulq-atvorida shakllangan deviant xulq-atvor va ularning jinoiy xatti-harakatlar sifatida ifodalanishi, deviant xulq-atvor rivojlanishiga ta’sir etuvchi turli xil omillarning tadqiq etilishiga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, psixologik treninglarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat ta’lim yo‘nalishida «Umumiy psixologiya», «Yosh va pedagogik psixologiya», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixodiagnostika», «Shaxs psixologiyasi», «Yuridik psixologiya» fanlari bo‘yicha ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida foydalanish, shuningdek, barkamol rivojlanishiga halaqit beruvchi psixologik to‘siqlarni o‘rganish, o‘smirlarda deviant xulq-atvor rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va psixoprofilaktik mexanizmlari bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

O‘smirlar xulq-atvorida yuzaga kelishi kutilayotgan salbiy o‘zgarishlarning psixokorreksiyasi amalga oshirilib, psixik rivojlantirish dasturiga ko‘ra psixoprofilaktik va psixologik maslahat tizimi tayyorlandi. Bunga asoslanib, o‘smirlar xulq-atvorida yuzaga keladigan deviant xulq-atvorni o‘rganish, aniqlash va oldini olishning tarbiyaviy-psixologik tuzilmalari ishlab chiqildi.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishimizning maqsadidan kelib chiqib, o‘smirlar bilan hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishning o‘ziga xos bir maqsadga yo‘nalgan -

uyg‘unlashgan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy ta’sir modelini yaratish edi, shuning uchun o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish uchun muhim bo‘lgan «Bir maqsadga yo‘nalgan – uyg‘unlashgan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy ta’sir» modelini yaratdik (1-rasm).

O‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda ishlab chiqilgan «Bir maqsadga yo‘nalgan – uyg‘unlashgan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy ta’sir» modeli jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘smirlar xulq-atvorida uchraydigan deviant xulq-atvor va boshqa salbiy o‘zgarishlarga zamin yaratuvchi shart-sharoitlarni aniqlash bilan bir qatorda ota-onalar, murabbiy-o‘qituvchilar, huquq tartibot organlari xodimlari, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha mahalla maslahatchilari bilan barkamol yoshlarni tarbiyalash uchun yaqindan hamkorlik o‘rnatish zarurat ekanligi aniqlandi. Axloqiy-ma’naviy tarbiyaga xos ustuvor vazifalarni izchil va og‘ishmay amalga oshirish bilangina o‘smirlarda shakllanish ehtimoli bo‘lgan deviant xulq-atvor va jinoiy xatti-harakatlarni oldi olinishi asoslandi.

O‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo‘naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek, huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti.

Bir maqsadga yo‘nalgan – uyg‘unlashgan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy ta’sir choralari ishlab chiqishda, vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko‘rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o‘zaro nomutanosibligi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab yetadi. Shuning uchun ham biz taklif etgan «Bir maqsadga yo‘nalgan – uyg‘unlashgan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy ta’sir» modelini ishga tushirish va o‘zaro homkorlikni yo‘lga qo‘yish o‘smirlarda deviant xulq-atvor rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va psixoprofilaktik mexanizmlarini yaratishda juda katta samara beradi.





1-rasm. «Bir maqsadga yo‘nalgan – uyg‘unlashgan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy ta‘sir» modeli

Biz taklif etgan modelning samaradorligi tekshirilganda, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha dasturiy prinsiplarga ko‘ra, o‘smir bolalar tarbiyasi va himoyasi bilan nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki oila, ijtimoiy institutlar, maktab, mahalla, qo‘ni qo‘shnilar, yaqin qarindoshlar va yoshlar tashkilotlari hamda diniy qo‘mita vakillari ham shug‘ullanishi kerakligi aniqlandi.

O‘quv-tarbiya jarayonlarini uzluksiz takomillashtirib borish asosida jahon andozalariga erishish barobarida yoshlar xulq-atvorida hosil bo‘ladigan salbiy o‘zgarishlarni dolzarb muammo sifatida o‘rganish, uni korreksiya qilish, bunday o‘zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi tabiiy-fiziologik, ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy-psixologik omillarni hisobga olish istiqbolda belgilangan natijalarga erishish uchun keng imkoniyat yaratadi.

“O‘smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalardan foydalanish” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Shaxsning psixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishda motivatsion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivatsiya, odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko‘pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologik uyg‘unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo‘lib, bu jarayon psixologik jihatdan murakkablashib boradi va o‘z

mohiyatiga ko‘ra sub’ektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilashi asoslandi.

2. Jahon psixologiyasi fanida motivlarning yuzaga kelishi, turlari va yo‘nalganligi, xulq-atvorda ifodalanishi, sub’ekt faoliyatida (o‘yin, o‘qish va mehnat) va muomala-munosabat jarayonlarida rivojlanishi keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Aksariyat mualliflar shaxsni biologizatsiyalashtirishga intilganliklari tufayli motivning psixologik mohiyatini yetarlicha yoritmay, oddiy turtki bilan tenglashtiradilar. Natijada xulq motivlarining ijtimoiy shartlanganligi va ijtimoiy xususiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan chetda qoladi. Motivni keltirib chiqaruvchi va psixologik mohiyatini izohlovchi mexanizmlar, ularning manbalari hamda ijtimoiy tarbiyaviy xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmaganligi isbotlandi.

3. O‘smirlarda deviant xulq-atvor rivojlanishini oldini olish uchun ular tarbiyasiga mas’ullik o‘rganilganda, o‘smirlarning hayoti va tarbiyasida ota-onalar hamda ularning oila a‘zolari doimiy mas’ul va ogoh bo‘lishlari, o‘smirning o‘zi mas’ul va ogoh bo‘lishi muhimligi, undan so‘ng maktab rahbariyati, o‘qish jamoalari hamda o‘smir tengqurlari uning tarbiyasida mas’ul ekanliklari va doimiy ogoh bo‘lishlari, ular tarbiyasida yanada mas’uliyatliroq yondoshishda huquq tartibot organlari, mahalla faollari va jamoatchilik, qarindosh-urug‘ va qo‘ni-qo‘shnilar ham muhim tarbiyaviy ta’sir manbalari sifatida yaqindan yordam berishlari kerakligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yangi O‘zbekistonda amaldagi ta’lim-tarbiya tizimining oila tarbiyasidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim bosqichi tugaguniga qadar amaliy psixologlar uchun o‘smirlar xulq-atvoridagi deviant xulq-atvorni o‘rganishga xizmat qiluvchi metodikalar to‘plamida xulq-atvorning salbiy o‘zgarishlarini psixodiagnostik baholovchi, psixokorreksion va psixoprofilaktik me‘yorli rivojlantirishga yo‘llovchi usullar dasturini yaratish hamda undan tizimli foydalanish, oilalardagi ijtimoiy muammolarni hal etishda kompleks yondashuv tizimini yo‘lga qo‘yish orqali deviant xulq-atvorni rivojlantiruvchi omillarni minimallashtirish maqsadida sog‘ligini, ruhiyatini himoya qilish, xavfsizligini ta’minlash, ularning har qanday kutilmagan hodisalardan to‘la muhofaza etilishini kafolatlaydigan shart-sharoitlarni yaratish tavsiya etiladi.

2. O‘smirlar xulq-atvorida shakllanayotgan salbiy o‘zgarishlarga zamin yaratuvchi shart-sharoitlar va turli-tuman omillarga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy tadbirlarda ota-onalar, murabbiy-o‘qituvchilar, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha mahalla maslahatchilari, imom-xatiblar va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ya’ni maktablarga biriktirilgan inspektor psixologlarning burchi, mas’uliyati va javobgarligini oshirish tavsiya etiladi.

3. O‘smirlar xulq-atvorida shakllanayotgan salbiy o‘zgarishlarning motivatsion asoslarini, manbalarini, oqibatlarini ilmiy jihatdan o‘rganib, ularda ijobiy xulq-atvor qiyofasini rivojlantirishga xos har tomonlama qulay ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy muammolarni hal etishga ko‘maklashadigan imkoniyatlar yaratish, ota-onalarga manzilli

psixologik yordam ko‘rsatish va ularni farzandlari bilan konstruktiv muloqot qilishga o‘rgatish tavsiya etiladi.

4. Har bir o‘smirning psixologik ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, maxsus reabilitatsion dasturlar va profilaktik texnologiyalar yordamida ular bilan individual ishlash, o‘quv muassasalarida deviant xulq-atvor rivojlanishini oldini olish hamda sog‘lom muhitni shakllantirish maqsadida psixologik treninglar, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan darslar va psixokorreksion dasturlarni joriy etish profilaktikani yo‘lga qo‘yish maqsadida samarali psixologik texnologiyalardan ya‘ni qisqa muddatli (2-3 minutlik) kontentlardan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Ijobiy guruhlar tashkil qilish va tengqurlar davrasida o‘zi qiziqqan ijobiy mashg‘ulotlarga jalb qilish orqali salbiy tengdoshlar ta‘sirini kamaytirish, o‘smirlarning ijobiy ijtimoiy muhitda kamol topishi, o‘sib-ulg‘ayishini ta‘minlash va ijobiy yutuqlariga qarab rag‘batlantirish maqsadida ota-onalar, aka-ukalar, yaqin qarindoshlar va jamoatchilik hamda davlat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, o‘smirlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish uchun zakovat kulublari, kitobxonlik tugaraklari hamda madaniy va sport tadbirlarini ko‘paytirish tavsiya etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. - 80 b. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 6 iyul.
5. Qodirov O.S. «O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi» // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.
6. Қодиров О.С. Ўсмирларда жиноят мотивлари шаклланишининг психодиагностикаси ва психокоррекцияси масалалари. Монография. ISBN 978-9943-7833-1-7. Самарқанд; «Fan bulog‘i» nashriyoti, 2021. - 160 б.
7. Кодиров О.С. Вопросы усиления психопрофилактики лиц, совершающих преступления. // Вестник интегративной психологии. 2023 Выпуск 31. часть 2.- Ярославль – 2024. - С. 470-474.
8. Qodirov O.S. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar xulq-atvori bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik muammolar. // Pedagogik mahorat. 9-son oktyabr. Buxoro. – 2023. B. 17-21.



9. Qodirov O.S. O‘smirlar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan psixoprofilaktik treningning ahamiyati. SamDU Ilmiy axborotnomasi - 2024-Samarqand, 2-son. - B. 89-96.
10. Qodirov O.S. O‘smirlar xulq-atvori psixokorreksiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va psixoprofilaktik mexanizmlari. //Psixologiya. – Buxoro, 2023. - №4. - B. 143-148.
11. Qodirov O.S. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning psixologik mexanizmlari. // Ta’lim mazmuni uzluksizligi. 2023, 6-son. B. 119-121.
12. Qodirov O.S. O‘zbekistonda tarbiyasi qiyin o‘smirlarga e’tiborni kuchaytirishning psixologik muammosi. // Pedagogik akmeologiya. – Buxoro. 2023 №5(7). - B. 186-190.
13. Qodirov O.S. O‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining empirik o‘rganish tahlili. // Pedagogik akmeologiya.– Buxoro. 2023. №6(8) - B. 140-144.
14. Qodirov O.S. O‘smirlarda huquqbuzarliklarini oldini olishning samarali usullari. // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. – Toshkent. - 2023. №1/12. - B. 162-164.
15. Qodirov O.S. Xulqi og‘ishgan o‘smirlar bilan psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirish. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-6| 2023 Published: [22-06-2023]. - P. 1599-1602.
16. Кодиров О.С. Социально-психологические проблемы мотивации в зарубежной психологии. // Вестник интегративной психологии. 2023. Выпуск 30 часть 2.- Ярославль – 2024. - С. 170-174.
17. Qodirov O.S. O‘smirlarda jinoyatlarni oldini olishda huquqiy tushunchalarni rivojlantirish. // «Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti Ilmiy axborotnomasi» buxpxti.uz 2024. №5 (9). Buxoro – 2024. B. 160-164.
18. Qodirov O.S. Yangi O‘zbekistonda tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. – 2024. № 4, Buxoro – 2024. B. 20-22.
19. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.- 250 b.
20. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.

Internet manbalari:

1. <https://lex.uz/docs/4367731>. (Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2019 й., 09/19/472/3253-сон; Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.08.2021 й., 09/21/511/0793-сон)
2. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. <https://www.stanford.edu/>, <http://www.calstatela.edu/>, <https://www.purdue.edu/>, <https://www.iastate.edu/>, <https://umich.edu/>, <https://www.haifa.ac.il/index.php/en/>, <http://eng.uj.edu.cn/>, <https://www.uq.edu.au/>, <https://www.universiteit leiden.nl/en>,

<https://www.herzen.spb.ru>, [www.msu.ru](http://www.msu.ru), <https://lk.pspu.ru>, [lk.pspu.ru](http://lk.pspu.ru) (<https://lk.pspu.ru/>),  
<https://tn.university> va бошқа манбалар асосида тайёрланган.

3. [www.koob.ru](http://www.koob.ru)
4. [www.psychology.ru](http://www.psychology.ru)
5. [http://fikir.uz/posts/Fikir\\_psixologiya](http://fikir.uz/posts/Fikir_psixologiya).
6. <http://lex.uz/pages/getpage.aspx>.